

AT "ALOQABANK"
2025 yil "11" noyabr da
1048-1 -son bilan
RO'YXATGA OLINDI

AT "Aloqabank"
Kuzatuv Kengashining
2025-yil "11" noyabr dagi
91 - sonli bayonhomasiga
_____ - ilova

**"EKOLOGIK VA IJTIMOY RISKLARNI
BOSHQARISH SIYOSATI"**

Toshkent -2025-y.

I. Umumiy qoidalar

1.1 “Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati” (bundan buyon matnda “Siyosat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 541-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 5-apreldagi Adliya vazirligi tomonidan 916-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi, xalqaro moliya institutlari tomonidan tasdiqlangan ekologik va ijtimoiy standartlar majmuasi hamda AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Bank” yuritiladi) Ustavi va Bankning boshqa ichki qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2 Mazkur Siyosat Bankning ekologik va ijtimoiy javobgarligini ta’minlashga qaratilgan hujjatdir.

1.3 Siyosatning maqsadi – loyihalarni moliyalashtirish jarayonida potensial ijobiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni oshirish, salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlarining oldini olish yoki kamaytirish, shuningdek moliyalashtiriladigan loyihalarning barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishini ta’minlashga ko‘maklashishdan iborat.

1.4 Ushbu Siyosat Bank va uning mijozlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

1.5 Siyosat tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy boshqaruv tizimining asosi bo‘lib, zarurat tug‘ilganda, xalqaro moliya institutlari (bundan buyon matnda “XMI” deb yuritiladi) talabiga ko‘ra alohida reglament bilan Bank ehtiyojlari uchun moslashtirilishi mumkin.

1.6 Bank o‘z faoliyatida va mijozlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlarda ekologik va ijtimoiy risklarni har tomonlama aniqlash, baholash va boshqarish masalalariga ustuvor ahamiyat beradi.

1.7 Bank o‘z faoliyati va moliyalashtiriladigan loyihalarda atrof-muhitga, aholiga va ularning salomatligiga ta’sirni oldini olish, minimallashtirish, yumshatish yoki kompensatsiya qilish (belgilangan ketma-ketlikda) uchun mavjud moliyaviy va texnologik resurslardan, shuningdek eng ilg‘or texnologiyalar va xalqaro amaliyotlardan foydalanish orqali eng yuqori darajada say-harakatlarni amalga oshirishi lozim.

1.8 Bank o‘z faoliyati va loyihalarni moliyalashtirish doirasida aholining majburiy ravishda jismoniy yoki iqtisodiy ko‘chirilishini butunlay oldini olishga, bunday holat yuzaga kelishi muqarrar bo‘lganda esa ularning ko‘lamini kamaytirishga qaratilgan choralar ko‘radi.

II. Bankning majburiyatlari

2.1 Iqtisodiy jihatdan samarali, barqaror va xavfsiz faoliyatni ta’minlash maqsadida Bank ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribaga amal qiladi.

2.2 Bank o‘z faoliyati hamda mijozlari faoliyati doirasida yuzaga keladigan ekologik va ijtimoiy risklarni baholash, samarali monitoring va boshqaruv tizimlarini joriy etish kabi barcha zaruriy choralarni ko‘radi.

2.3 Bank o‘z faoliyatida resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik va/yoki ifloslanishning oldini olish tamoyillari va usullarini qo‘llaydi.

Moliyaviy va texnologik jihatdan ushbu tamoyil va usullarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, ular insonlarga, ularning salomatligiga va atrof-muhitga salbiy ta'sirni oldini olishni eng samarali tarzda ta'minlaydi.

2.4 Bank biologik xilma-xillikka ta'sir ko'rsatishdan saqlanadi, biologik xilma-xillik va tabiiy resurslarni ularning rivojlanishini hisobga olgan holda muhofaza qilish va saqlab qolishni qo'llab-quvvatlaydi. Bank o'z faoliyatida tirik mavjudotlarning tabiiy yashash muhitining jiddiy o'zgarishiga yoki yomonlashuviga yo'l qo'ymaydi.

2.5 Bank aholining va o'z xodimlarining salomatligini saqlash va xavfsizligini ta'minlash yondashuvlariga amal qiladi, xodimlar va Bank faoliyat olib borayotgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholining sog'ligi borasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni minimallashtirishga harakat qiladi.

2.6 Bank mahalliy xalqlar va kam sonli millatlar o'zlarining an'anaviy madaniy ifoda shakllarini yaratish, tarqatish, avlodlarga yetkazish va ulardan o'z taraqqiyotlari yo'lida foydalanish huquqlarini tan oladi hamda zarur hollarda bu jarayonga ko'maklashadi.

2.7 Bank loyihalarni moliyalashtirish jarayonida mahalliy xalqlar hamjamiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatilishining oldini olishga intiladi hamda ularning madaniy qadriyatlariga mos tarzda barqaror rivojlanish imkoniyatlari va mavjud manfaatlaridan foydalanish huquqlarini ta'minlashga harakat qiladi.

2.8 Bank hozirgi va kelajak avlodlar uchun madaniy va tarixiy merosning muhim ahamiyatini e'tirof etadi hamda moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasida ushbu merosni muhofaza qilinishini ta'minlaydi. Bank mazkur merosni, u qonun bilan himoya qilingan-qilinmaganidan qat'iynazar, asrab-avaylashdan manfaatdordir.

2.9 Bank arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyati bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda ko'chmas tarixiy va madaniy boyliklarni saqlashga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi.

III. Mijozlarning majburiyatlari

3.1 Mijozlar tomonidan ekologik va ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi hamkorlik natijalarining muhim ko'rsatkichidir. Bank mijozlar faoliyatida ekologik va ijtimoiy standartlarning qo'llanilishiga erishishga intiladi, bu orqali ekologik va ijtimoiy salbiy ta'sirlar kamaytirilishi maqsad qilinadi.

3.2 Bank o'z mijozlaridan quyidagilarni talab qiladi:

3.2.1 Atrof-muhit va aholiga nisbatan mavjud va ehtimoliy ta'sirlarni aniqlash hamda baholash bo'yicha ekologik risklarni boshqarish tizimini qo'llash; tegishli boshqaruv choralarini belgilash va samarali joriy etish; ushbu tizim hamda ekologik risklar darajasi ustidan nazoratni amalga oshirish;

3.2.2 Inson resurslarini boshqarish va xodimlar salomatligini ta'minlash (saqlash) tizimini qo'llash. Bunday tizim xodimlariga adolatli munosabatda bo'lishni, ular uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratishni ta'minlashi kerak;

3.2.3 Xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi doirasida xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish, shuningdek ularga mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha ma'lumot va maslahatlar berish, ularni

o'qitish va nazorat qilish;

3.2.4 Har qanday sharoitda mahalliy aholi va iste'molchilarning sog'lig'i hamda xavfsizligiga salbiy ta'sirlarning oldini olish, ularni baholash, bartaraf etish yoki kamaytirish choralarini ko'rish.

IV. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining institutsional jihatlar

4.1 O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonunlari davlat ekologik siyosatining asosiy huquqiy bazasini tashkil etadi. Ushbu Qonunlar tabiiy muhit sharoitlarini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

4.2 Ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

4.2.1 rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning ularni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

4.2.2 rejalashtirilayotgan yoki olib borilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhit holati hamda inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi darajasini baholash;

4.2.3 atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ko'zda tutilayotgan choralar yetariligi va asoslanganligini aniqlash.

4.3 Strategik maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasining davlat ekologik ekspertizasi hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga doir amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq belgilanadi.

4.4 Strategik maqsad va vazifalar inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda muvozanat va uyg'unlikni ta'minlash, ekologik tizimlar, tabiiy majmualar hamda muhim obyektlarni saqlash va himoya qilish, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashga qaratilgan.

4.5 Davlat ekologik siyosati O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining davlat ekologik ekspertizasini amalga oshiruvchi organlari (hududiy boshqarmalari) davlat ekologik ekspertizasining yagona tizimini tashkil etadi hamda Toshkent shahrida va O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida faoliyat yuritadi.

4.6 Ushbu Siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangach, uning ijrosi Investitsiya va Kredit qo'mitalari, Kredit komissiyalari orqali Bank Boshqaruvi tomonidan tashkil etiladi. Mazkur Siyosatni bevosita amalga oshirish ekologik va ijtimoiy risklar bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

V. Risklarni tasniflash va skrining qilish

5.1 Loyihaning tasnifi uning atrof-muhit va jamiyatga ta'siri, shuningdek amalga oshirilishi bilan bog'liq risklarni o'rganish hamda ekologik va ijtimoiy risklar tahlili asosida

amalga oshiriladi.

5.2 Ekologik va ijtimoiy riskni minimallashtirish maqsadida loyihalar 4 (to'rt) toifaga bo'linadi: "Yuqori riskli (YR)" toifasidagi loyihalar, "Jiddiy riskli (JR)" toifasidagi loyihalar, "O'rtacha riskli (O'R)" va "Past riskli (PR)" toifalaridagi loyihalar.

5.3 Ekologik risk toifalarini tasniflash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Ekologik risk toifalarining tasnifi:

- "YR" toifasidagi loyihalar yuqori darajadagi riskka ega loyihalar sifatida tasniflanadi (Milliy I-toifa va ayrim II-toifalar);
- "JR" toifasidagi loyihalar o'rtacha darajadagi riskka ega loyihalar sifatida tasniflanadi (II-toifadagi loyihalarining asosiy qismi);
- "O'R" toifasidagi loyihalar mo'tadil darajadagi riskka ega loyihalar sifatida tasniflanadi (Milliy III va IV-toifalar);
- "PR" toifasidagi loyihalar minimal yoki 0 (nol) darajadagi riskka ega loyihalar sifatida tasniflanadi (ekologik baholash talab qilinmaydi).

5.4 O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan davlat ekologik ekspertizasining tegishli xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda va Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra, Bank o'z mablag'lari va davlat mablag'lari hisobidan "YR" toifasiga kiruvchi loyihalarni moliyalashtirishi mumkin. "YR" toifasidagi loyiha, agar bu qarz shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa va/yoki faqat XMLning roziligi olingan taqdirdagina, XMLning kredit liniyasi hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

5.5 Bank o'z mablag'lari va XMLdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan "JR", "O'R" va "PR" toifasiga kiruvchi loyihalarni moliyalashtirishi mumkin.

5.6 Bank majburiy ko'chirishga ta'sir etmaydigan loyihalarni, ya'ni majburiy ko'chirish bo'yicha "PR" toifasiga mansub loyihalarni moliyalashtiradi.

5.7 Bank atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish riskini kamaytirish maqsadida har bir moliyalashtirilayotgan loyihani tasniflash va identifikatsiyalash jarayonini amalga oshiradi.

VI. Tashkiliy tuzilma va shtatlar jadvali

6.1 Bankda, Bankning Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish (bundan buyon matnda "EIRB" deb yuritiladi) bo'yicha menejeri, Bankning Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi (bundan buyon matnda "HKXKM" deb yuritiladi)/Kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi (bundan buyon matnda "KXKM" deb yuritiladi)da esa EIRB koordinatorlari tayinlanadi. Koordinatorlar vazifasini HKXKM/KXKMlarning korporativ qismi uchun mas'ul bo'lgan direktor o'rinbosarlari bajaradilar. Bankda EIRB menejerining vazifalari Korporativ kredit amaliyotlarini muvofiqlashtirish departamenti direktoriga yuklatiladi.

6.2 EIRB menejeri Bankning tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda quyidagilar uchun javobgardir:

6.2.1 Bankning mazkur Siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish va Bank Boshqaruvi hamda Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish va

tasdiqlash uchun taqdim etish;

6.2.2 Ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan tartib-qoidalarni (bundan buyon matnda "Tartib-qoidalar" deb yuritiladi) amalga oshirish to'g'risida yillik hisobotlarni tayyorlash va Boshqaruv, Kuzatuv kengashi va boshqa manfaatdor tomonlarga taqdim etish;

6.2.3 loyiha amalga oshirilishi davomida himoya choralari barcha jihatlarini monitoring qilish.

6.3 EIRB koordinatorlari EIRB menejeriga yordam ko'rsatadilar va o'z vakolatlari darajasidagi kundalik operatsiyalar doirasida quyidagilarni ta'minlaydilar:

6.3.1 Bank HKXKM/KXKMlarining barcha tarkibiy bo'linmalari tomonidan Siyosat va Tartib-qoidalar talablariga yetarli darajada rioya qilinishi;

6.3.2 Barcha kreditlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda Siyosat va Tartib-qoidalarga muvofiq ekologik va ijtimoiy risklar bo'yicha tegishli hujjatlarni majburiy rasmiylashtirish;

6.3.3 ekologik va ijtimoiy risklar bo'yicha tegishli hujjatlar shakllarini lozim darajada rasmiylashtirish va belgilangan formatlarga rioya qilish;

6.3.4 ko'rib chiqilgan ekologik va ijtimoiy risklarni hujjatlashtirish va har bir qarz oluvchining kredit yig'majildlarida saqlash, ularni boshqarish va monitoring qilish;

6.3.5 Kredit xodimlari tomonidan qarz oluvchilarning ekologik va ijtimoiy risklar bo'yicha talablarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

6.4 EIRB menejeri ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi Siyosati va Tartib-qoidalarini samarali amalga oshirish uchun tegishli resurslarni ta'minlash bo'yicha Bank rahbariyati bilan hamkorlik qilishi kerak. U kuzatish, ekspertiza o'tkazish uchun texnik jihatdan savodli bo'lishi va har qanday maslahatchilar tomonidan olib borilayotgan ishlarni nazorat qila olishi kerak.

6.5 Bank EIRB talablarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi amaldagi va yangi xodimlar uchun davriy o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirib boradi. Tegishli xodimlarning kasbiy mahorati muntazam ravishda oshirib boriladi, buning doirasida EIRB tizimi, tekshiruv ro'yxatlari, maxsus shakllar, hisobotlar va tartib-taomillarga oid treninglar va seminarlar o'tkaziladi. Mazkur tadbirlar qatoriga taqiqlangan faoliyat turlarini aniqlash, ekologik va ijtimoiy xatarlarni kategoriyalash, kreditlarni tasdiqlash jarayonida zaruriy tekshiruvlarni o'tkazish, Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi arizani (bundan buyon matnda "ATTA" deb yuritiladi) tayyorlash, loyihalarni ekologik va ijtimoiy jihatdan muvofiqligi bo'yicha rejalashtirilgan tekshiruvlar, hujjatlarni yuritish va saqlash, hisobotlarni tayyorlash kiradi.

VII. Loyihalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartib-taomili

7.1 Loyihalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartib-taomili O'zbekiston Respublikasining milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlari va ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq amalga oshiriladi.

7.2 Risklarni toifalarga ajratish O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq moliyalashtirilayotgan loyihalarning ekologik va ijtimoiy risklar mavjudligi yuzasidan skriningsi asosida amalga oshiriladi. Loyihalar XMI kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirilgan taqdirda, risklarni tasniflash XMI talablari bo'yicha amalga

oshiriladi.

7.3 Loyihaga "PR" toifasi berilganda loyiha tasdiqlanadi hamda uni moliyalashtirish uchun Bankning o'z mablag'lari yoki XMI mablag'lari jalb qilinadi.

7.4 Loyihaga "JR" yoki "O'R" toifasi berilganda Bank amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida dastlabki ekologik baholashni talab qiladi. Bunday holatda mablag'lar ajratilishi milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari (ekologik normativlar loyihalari, jumladan ATTA yoki loyiha xususiyatidan kelib chiqqan holda atrof-muhitga ta'sirni baholash (bundan buyon matnda "ATB" deb yuritiladi)) asosida barcha tegishli tartib-taomillar bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi. Agar loyiha XMI kredit liniyasi hisobidan moliyalashtirilsa, ushbu moliyalashtirish faqat XMI talablari bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

7.5 Loyihaga "YR" toifasini berilganda Bank bunday loyihani O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq barcha ruxsat beruvchi hujjatlar olingandan keyingina moliyalashtiradi. "YR" toifasidagi loyiha, faqatgina qarz shartnomasida ko'zda tutilgan va XMI tomonidan tasdiqlangan taqdirdagina, XMI kredit liniyasi hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

7.6 Risklarni ko'rib chiqish va tasniflashning yanada batafsilroq tartibi 1-ilovada keltirilgan.

VIII. Ekologik va ijtimoiy risklar monitoringi

8.1 Ekologik va ijtimoiy risklar monitoringi Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq, zarur hollarda esa XMI talablariga muvofiq doimiy ravishda amalga oshiriladi.

8.2 Ekologik va ijtimoiy risklarni monitoring qilishdan maqsad bank mijozining tranzaksiyalarni amalga oshirish davridagi faoliyati bilan bog'liq joriy va yangi ekologik risklarni baholashdir.

8.3 Mijoz tomonidan ekologik va ijtimoiy himoya choralari bo'yicha shartlarga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazish kredit shartnomasida nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

8.4 Monitoring jarayoni mijoz tomonidan amalga oshirilgan ekologik va ijtimoiy himoya choralari bo'yicha ishlar yuzasidan davriy hisobotlarni ko'rib chiqishni hamda Bank xodimlari tomonidan mijozning loyihasi joylashgan hududga muntazam tashriflar uyushtirilishini o'z ichiga oladi.

8.5 Zarur hollarda, Bank XMLga tranzaksiyalarning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari bo'yicha davriy hisobotlarni va ekologik va ijtimoiy risklarning umumiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ko'rilgan choralarni o'z ichiga olgan hisobotlarni taqdim etadi.

8.6 Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish monitoringi tizimining batafsil tavsifi 2-ilovada bayon etilgan.

IX. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

9.1 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi — bu ekologik va ijtimoiy risklar ta'siriga uchragan shaxslarga ko'maklashish hamda mavjud so'rov va shikoyatlarni o'z vaqtida hal etish uchun maslahatlar berish va muammolarni ko'rib chiqishni

ta'minlaydigan samarali tizimdir.

9.2 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi milliy me'yoriy-huquqiy talablar asosida amalga oshirilib, ta'sirga uchragan shaxslarning shikoyatlarini tezkor ko'rib chiqish hamda jarayonning shaffofligini ta'minlashga qaratiladi.

9.3 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi quyidagilarga yo'naltirilgan: (i) loyihani amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bolgan nizolar, asossiz kechikishlar va murakkabliklar riskini kamaytirish; (ii) loyiha faoliyati va natijalarining sifatini oshirish; (iii) ta'sirga uchragan shaxslarning huquqlariga rioya etilishini ta'minlash; (iv) loyihalardan jismoniy shaxslarga nisbatan kelib chiqadigan kutilmagan oqibatlarni aniqlash va ularga munosib choralar ko'rish; (v) loyiha ta'siriga uchragan shaxslar ishtirokini va ularga yordam ko'rsatilishi hamda imtiyozlarni maksimal darajada oshirish.

9.4 EIRB menejeri quyidagi ma'lumotlarning hisobini yuritadi:

9.4.1 mahalliy jamoalardan olingan shikoyatlar, da'volar yoki noroziliklar, ular hisobga olingan sanalar, jalb qilingan tashkilotlar, shikoyatlarni hal qilish uchun ko'rilgan choralar, hal qilinmagan har qanday masalalar va ularni hal qilish uchun taklif qilingan choralar;

9.4.2 jabrlangan shaxslar, mahalliy jamoalar, fuqarolik jamiyati guruhlari va boshqa manfaatdor tomonlarga oid ma'lumotlarni oshkor etilganligi va ular bilan maslahatlashuvlar olib borilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

9.4.3 maslahatlashuv jarayonida ko'tarilgan masalalarni hal etish va bildirilgan tashvishlarni ko'rib chiqish bo'yicha yondashuv/metodologiya haqida batafsil ma'lumot.

9.5 Shikoyatlarni ko'rib chiqishning chizma ko'rinishidagi tartib-taomili 3-ildavda keltirilgan.

X. Yakuniy qoidalar

10.1 Ekologik va ijtimoiy risklarni minimallashtirish maqsadida Bank mavjud moliyaviy va texnologik resurslarni hisobga olgan holda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtiradi hamda uning samaradorligini oshiradi.

10.2 Bank o'z mablag'lari hamda XMI mablag'lari hisobidan loyihalarni moliyalashtirish jarayonida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarishda O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan hamda boshqa tegishli talablarni qo'llaydi.

10.3 Bank ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha tashqi axborot ta'minoti tizimini joriy etadi hamda ushbu masalalarga oid so'rovlarni, shu jumladan ekologik va/yoki ijtimoiy masalalar bilan bog'liq murojaatlarni qabul qilish uchun mas'ul shaxsini tayinlaydi.

10.4 Mazkur Siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibda ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Risklarni ko'rib chiqish va tasniflash tartibi

1.1. Bank investitsiya faoliyatini amalga oshirishda ekologik va ijtimoiy risklarni hisobga olishga qaratilgan quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

1) *Investitsiya faoliyatining oshkoraligi* – Bankning investitsiya faoliyati oshkoralik, shaffoflik va korporativ boshqaruvning ilg'or tajribalariga asoslangan holda olib boriladi;

2) *Ekologik va ijtimoiy mas'uliyat* — Bank atrof-muhit, mehnat va turmushning ijtimoiy sharoitlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan loyihalarni moliyalashtiradi;

3) *Xavfli faoliyatni moliyalashtirishdan bosh tortish* - Bank quyidagilarni moliyalashtirmaydi:

a) majburiy va bolalar mehnatidan foydalanuvchi loyihalar;

b) qimor biznesi;

d) qurol-yarog' va o'q-dorilar ishlab chiqarish va ularning savdosi;

e) radioaktiv materiallar, shu jumladan yadroviy reaktorlar hamda ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish va ularning savdosi;

f) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki biologik xilma-xillik, resurslar va madaniy merosni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar bilan taqiqlangan faoliyat turlari;

g) Boshqaruv va/yoki Bank Kuzatuv kengashi (o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha) va/yoki xalqaro moliya institutlari (XMIning kredit liniyalari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha) qaroriga muvofiq belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa faoliyat turlari.

1.2. Bankning XMI bilan kelishuvlariga asosan ro'yxatga Bank tomonidan moliyalashtirilmaydigan boshqa faoliyat turlari ham kiritilishi mumkin.

1.3. Ekologik va ijtimoiy riskni minimallashtirish maqsadida Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar 4 (to'rt) toifaga bo'linadi: "Yuqori riskli (YR)" toifasidagi loyihalar, "Jiddiy riskli (JR)" toifasidagi loyihalar, "O'rtacha riskli (O'R)" va "Past riskli (PR)" toifalaridagi loyihalar.

1.4. Ekologik va ijtimoiy risklarni toifalash:

1). "YR" toifasidagi loyihalar yuqori riskli loyihalar sifatida tasniflanadi (I-milliy toifalar va ayrim II-toifalar);

2). "JR" toifasidagi loyihalar risk darajasi o'rtacha bo'lgan loyihalar sifatida tasniflanadi (aksariyat II-toifa loyihalari);

3). "O'R" toifasidagi loyihalar o'rtacha risk darajasidagi loyihalar sifatida tasniflanadi (III va IV-milliy toifalar);

4). "PR" toifasidagi loyihalar minimal yoki 0 (nol) darajadagi riskka ega loyihalar sifatida tasniflanadi (ekologik baholash talab etilmaydi).

1.5. Loyihalarni ko'rib chiqishda ekologik va ijtimoiy risklarni hisobga olish hamda baholash quyidagi bosqichlardan iborat:

1) Loyihani Bank tomonidan moliyalashtirilmaydigan faoliyat turlari bo'yicha tekshirish;

2) Loyihani tasniflash va ekologik hamda ijtimoiy risklarni tekshirish bo'yicha keyingi zarur tartib-taomillarni aniqlash;

3) Loyiha tashabbuskoriga Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni hisobga olishga oid keyingi tartib-taomillar bo'yicha talablarini taqdim etish.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan davlat ekologik ekspertizasining tegishli xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda va Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra, Bank o'z mablag'lari va davlat mablag'lari hisobidan "YR" toifasiga kiruvchi loyihalarni moliyalashtirishi mumkin.

1.7. "YR" toifasidagi loyiha, agar bu qarz shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa va/yoki faqat XMIning roziligi olingan taqdirdagina, XMIning kredit liniyasi hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

1.8. Bank o'z mablag'lari va XMIdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan "JR", "O'R" va "PR" toifasiga kiruvchi loyihalarni moliyalashtirishi mumkin.

1.9. Bank atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish riskini kamaytirish maqsadida har bir moliyalashtirilayotgan loyihani skrining qilish va toifalash jarayonini amalga oshiradi.

1.10. Loyihani ko'rib chiqish va moliyalashtirish jarayonida, agar Bank loyihaning ustav kapitalida ishtirok etsa yoki loyiha faoliyatida boshqa muhim darajada qatnashib, loyiha ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lsa, ekologik omillarni tasniflashga oid keyingi tartib-taomillar loyiha tegishli deb topilgan toifaga muvofiq belgilab olinadi.

Ekologik hamda ijtimoiy risklarni boshqarish bo'yicha monitoring tizimi

Qarz oluvchilar faoliyatining ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari monitoringi butun operatsiya davomida ularning faoliyati bilan bog'liq mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik hamda ijtimoiy risklarni baholash maqsadida amalga oshiriladi.

Operatsiya tasdiqlangan paytdan boshlab Bank HKXKM/KXKMning monitoring va kreditni limitlash bo'limi xodimlari qarz oluvchining ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya etishini doimiy ravishda monitoring qilib boradilar.

Loyiha tasdiqlangandan so'ng ekologik va ijtimoiy standartlar yanada kuchaytirilishi mumkin, shuningdek, qarz oluvchi o'z faoliyatiga yoki ishlab chiqarish jarayonlariga o'zgartirishlar kiritishi mumkin, bu esa ilgari belgilangan risklarni oshirishi yoki yangi ekologik va ijtimoiy risklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Operatsiya darajasida yangi ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish portfel darajasida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarishni ta'minlaydi.

Tizimli monitoring qarz oluvchining loyihasi joylashgan hududga borib, ekologik va ijtimoiy talablarning bajarilishi ustidan tekshiruv jarayonlarini amalga oshirish orqali olib boriladi, bunda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha har qanday rejalar va choralar ijrosi ham nazorat qilinadi.

Monitoring o'tkazilishining davriyligi va ko'lamini qarz oluvchining faoliyati bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy muammolarning murakkablik darajasiga qarab belgilanadi, shu bilan birga loyiha monitoringi hisobot davridan keyingi yilning 25-fevralidan kechiktirmay yiliga kamida bir marotaba amalga oshirilishi shart.

Monitoring jarayoni, odatda, qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarga oid davriy hisobotlarni ko'rib chiqilishini hamda loyiha joylashgan hududga muntazam tashriflar uyushtirilishini o'z ichiga oladi.

Ushbu jarayonda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

- kamchiliklarni bartaraf etish rejasida nazarda tutilgan oqibatlarni yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini baholash;
- loyiha ekologik va ijtimoiy jihatlariga taalluqli amaldagi ruxsatnomalar yoki litsenziyalar mavjudligini monitoring qilish;
- ekologik va ijtimoiy standartlar hamda me'yorlarga rioya etilmagan hollarda qo'llanilgan jarima va sanksiyalar;
- maxsus qonunlarga rioya etilishini tasdiqlovchi vakolatli nazorat yoki tartibga soluvchi organlarning so'nggi hisobotlari, jumladan atrof muhitga chiqarilayotgan chiqindilar hajmining belgilangan me'yorlardan oshmaganligini ko'rsatuvchi o'lchov natijalarini;
- ekologik va ijtimoiy tushadigan hodisalar, jumladan, xodimlarning jarohatlanishi va to'kilishlar kabi avariya yoki baxtsiz hodisalar va boshqalar;
- qarz oluvchiga oid ekologik va ijtimoiy muammolarga OAVning e'tibori;

- manfaatdor tomonlar tarafidan qarz oluvchiga nisbatan bildirilgan shikoyatlar.

Agar Bank xodimlari ekologik va/yoki ijtimoiy muammolarni, jumladan, qarz oluvchi tomonidan ekologik va ijtimoiy jihatlar bo'yicha belgilangan talablariga rioya qilinmaslik holatlarini aniqlasalar, ushbu masalalarni oqilona muddatlarda hal etish maqsadida ular bo'yicha qarz oluvchi bilan hamkorlik qilishlari lozim.

Loyihaga oid ekologik va ijtimoiy muammolarning murakkablik darajasiga qarab, Bank xodimlari kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha yangi harakatlar rejasi ishlab chiqilishini va/yoki butun operatsiya davomida ekologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar to'g'risida davriy hisobotlar taqdim etilishini talab qilishlari mumkin.

Hisobotlarning davriyligi har bir operatsiya bo'yicha alohida belgilanishi va qarz oluvchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan monitoring natijalariga yoki mustaqil uchinchi shaxslar va/yoki tartibga soluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan monitoring natijalariga asoslanishi kerak.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmining chizma ko'rinishidagi tartib-taomili





3-bosqich	Ariza beruvchilarni xabardor qilish va monitoring	Shikoyat arizasi bo'yicha qaror qabul qilingandan so'ng, 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay qaror arizachiga yuboriladi. Arizani qabul qilgan Bankning tarkibiy bo'linmasi qarorlar monitoringini olib boradi va bu haqda hisobot tayyorlaydi.
------------------	--	--

Shikoyat bilan murojaat qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, agar ular murojaat chog'ida maxfiylikni ta'minlashni so'rashgan bo'lsalar, maxfiylik ta'minlanadi. Shikoyat qilgan shaxslarning vakillari to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanmaydi. Anonim shikoyatlar qabul qilinmaydi.

BANK UCHUN ISTISNO HOLATLARI RO'YHATI

(I) Bank quyidagi faoliyat turlari bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirmaydi:

- *majburiy mehnat yoki bolalar mehnatining har qanday shakllari bilan bog'liq ishlab chiqarish yoki faoliyat;*
- *qurol-yarog', o'q-dorilar, portlovchi moddalarni ishlab chiqarish va (yoki) sotib olish, shuningdek tashish va saqlash;*
- *majburiy ko'chirib yuborish/ko'chirib o'tkazishga olib keladigan loyihalar;*
- *qimor o'yinlari, kazino va shu kabilar;*
- *radioaktiv materiallar, shu jumladan yadroviy reaktorlar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish yoki sotish;*
- *bog'lanmagan tolali yoki asbest tarkibli mahsulotlarni ishlab chiqarish, foydalanish yoki ular bilan savdo qilish;*
- *savdo maqsadida o'rmon kesish ishlarini olib borish yoki o'rmon kesish uskuna va jihozlarini tegilmagan (birlamchi holatdagi) nam tropik va relikt o'rmonlarda ishlatish maqsadida xarid qilish.*
- *dengiz va qirg'oqbo'yi baliqchilik amaliyotlari, jumladan zaif va himoyalanadigan turlarga katta miqdorda zarar yetkazadigan, shuningdek dengiz biologik xilma-xilligi va yashash muhitlariga zarar keltiradigan keng miqyosli pelagik drifter usuli bilan va kichik to'r bilan baliq ovlash.*
- *dengizda uzunligi 2,5 km (ikki yarim)dan ortiq bo'lgan drifter to'rlari bilan baliq ovlash;*
- *loyiha amalga oshiriladigan davlatining milliy qonunchilik va me'yoriy talablari yoki xalqaro konvensiyalar va shartnomalar tomonidan noqonuniy deb tasniflanadigan faoliyat turlarini amalga oshirish, xalqaro muomaladan chiqarilishi yoki taqiqlanishi lozim bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish yoki savdo qilish, jumladan:*
 - a). *farmatsevtik vositalar, pestitsidlar va gerbitsidlar;*
 - b). *xalqaro aylanmadan chiqarilishi lozim bo'lgan ozon qatlamini buzuvchi moddalarni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi;*
 - c). *polixlorlangan difenillar va boshqa xavfli kimyoviy moddalar;*

d). yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya bilan tartibga solinadigan yovvoyi fauna va flora yoki ularning mahsulotlari, shuningdek, Yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya (CITES)[®] doirasida tartibga solinadigan savdo, yovvoyi fauna turlaridan mahsulot ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilish;

e). xalqaro qonunchilik bilan taqiqlangan chiqindilarni transchegaraviy tashish.

(II). Bank kredit shartnomalarida belgilangan Bank hamkorlarining shartlariga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini moliyalashtirishni cheklaydi:

- spirtli ichimliklar ishlab chiqarish yoki ularning savdosi, pivo va vinodan tashqari;
- tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki sotish;
- ko'mir bilan bog'liq loyihalar, jumladan ko'mir qazib olish, ko'mir tashish yoki ko'mir bilan ishlovchi elektr stansiyalari, shuningdek ushbu faoliyatlardan birini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan infratuzilma xizmatlari;
- neft qidirish va qazib olish.

Majburiy mehnat – bu barcha ishlar yoki xizmatlar, ular ixtiyoriy tarzda bajarilmagan, ya'ni jismoniy shaxslar kuch yoki jazodan qo'rqitilgan holda bajarishga majbur qilingan ishlar yoki xizmatlar.

Bolalar mehnati – qabul qiluvchi davlat qonunida belgilangan ishga qabul qilishning eng kam yoshidan kichik yoshdagi bolalarning ishga jalb qilinishi yoki Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli "Minimal yosh to'g'risidagi konvensiya" (www.ilo.org)ga zid ravishda bolalarning ishga jalb qilinishi.

Bosqichma-bosqich rad etilishi yoki taqiqlanishi lozim bo'lgan farmatsevtik mahsulotlar ro'yxati quyidagi manzilida keltirilgan: <http://www.who.int>.

Bosqichma-bosqich rad etilishi yoki taqiqlanishi kerak bo'lgan pestitsidlar va gerbitsidlar ro'yxati quyidagi manzilda keltirilgan:

Stratosfera ozoni bilan reaksiyaga kirishadigan va uni yemirib, natijada keng tarqalgan ozon tuynuklarini hosil qiladigan kimyoviy birikmalar ro'yxati Monreal protokolida keltirilgan, shuningdek, u yerda chiqindilarni kamaytirish va ularni ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich to'xtatishning maqsadli muddatlari ko'rsatilgan. Ma'lumotlar quyidagi manzilda keltirilgan: <http://www.unep.org/ozone/montreal.shtml>.

Elektrokondensatorlar va kommutatsiya uskunalarda.

Xavfli kimyoviy moddalar ro'yxati quyidagi manzilida keltirilgan: <http://www.pic.int>.

CITES: Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya. CITES ro'yxatiga kiritilgan turlar ro'yxati quyidagi manzilda keltirilgan: <http://www.cites.org>.

Ma'lumotnoma hujjatlari: Yevropa Komissiyasi reglamenti (EK) 1013/2006-son, 2006-yil 14-iyun, chiqindilarni tashish to'g'risida; IHTT Kengashi qarori C(2001)107/Final, C(92)39/Final qarorining qayta ko'rib chiqilishi, utilizatsiya qilish maqsadida transchegaraviy tashishlarni nazorat qilish bo'yicha; shuningdek, Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni utilizatsiya qilishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (<http://www.basel.int>).

Bu bunday tadbirlarda sezilarli darajada ishtirok etmaydigan loyiha homiylariga

taalluqli emas. Sezilarli darajada ishtirok etmaslik – tegishli faoliyat homiyning asosiy faoliyatlariga yordamchi xarakterga ega ekanligini bildiradi.

11. Bu tibbiy asbob-uskunalar, sifatni nazorat qilish (o'lchash) uchun asbob-uskunalar va maxsus asbob-uskunalarni sotib olishga taalluqli emas, ularga nisbatan XMK va boshqa XMIlarning fikriga ko'ra, radioaktiv modda manbai arziyas bo'lib, tegishli tarzda himoyalangan hisoblanadi.

Bu tarkibida 20 (yigirma) foizdan kam miqdorda asbest bo'lgan asbest-sementli listlarni sotib olish va undan foydalanishga taalluqli emas.

12. "Ko'mir bilan bog'liq loyiha" quyidagilarni anglatadi: (a) ko'mir elektr stansiyalari, ko'mir konlari, ko'mir tashish aktivlari yoki ko'mir konlari va ko'mir tashishni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan infratuzilma obyektlarini rivojlantirish yoki kengaytirish; (b) har qanday shaxs, agar u oldingi moliyaviy yil davomida:

(i) o'z ishlab chiqarilgan energiyasining 30 (o'ttiz) foizidan ortig'ini ko'mir elektr stansiyalarida ishlab chiqargan bo'lsa;

(ii) yillik daromadining 30 (o'ttiz) foizidan ortig'ini ko'mirdan olgan bo'lsa (shu jumladan ko'mir qazib olish va boshqa ko'mir bilan bog'liq faoliyat va xizmatlar*);

(iii) quvvati 10.0 MVt va undan ortiq bo'lgan ko'mir elektr stansiyasi o'rnatilgan bo'lsa;

(iv) 20 (yigirma) million tonna yoki undan ortiq ko'mir qazib olgan bo'lsa;

(v) ko'mir elektr stansiyalari, ko'mir konlari, ko'mir tashish aktivlari yoki ko'mir konlari va ko'mir tashishni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan infratuzilma obyektlarini rivojlantirish yoki kengaytirishda ishtirok etgan bo'lsa.

* Ko'mir ulushining daromad tarkibidagi baholanishi quyidagi faoliyat turlarini, hech qanday cheklovlarsiz, o'z ichiga oladi: razvedka va burg'ulash ishlari; foydali qazilmalarni qazib olish; transport va logistika xizmatlari; qayta ishlash jarayonlari; muhandislik ishlari; xarid va qurilish faoliyatlari; ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish; savdo faoliyati; uskunalar ishlab chiqarish; ko'mirni gazga aylantirish; ko'mirni suyuqlikka aylantirish; energetika sohasi; issiqlik ishlab chiqarish.

"Ko'mir bilan bog'liq quyi loyiha ta'siri" tushunchasi quyidagilarni anglatadi: ko'mir bilan bog'liq loyihani amalga oshirayotgan yoki uning tarkibiga kiruvchi har qanday shaxsga (shu jumladan uning sho'ba korxonalari) tegishli bo'lgan barcha balans aktivlari (kapital ham shu jumladan), balansdan tashqari majburiyatlar va dastlabki to'lov muddati 36 (o'ttiz olti) oydan ortiq (shuningdek, har qanday uzaytirish yoki qayta moliyalashtirish) bo'lgan ko'zda tutilmagan xarajatlar yig'indisi. Bunda hisob-kitoblarga kiritilmaydi: agar aktivlar, majburiyatlar yoki kutilmagan xarajatlar bo'yicha mablag'lar aniq maqsadli ravishda rivojlantirish yoki kengaytirish loyihasiga yo'naltirilgan bo'lsa va bunday loyiha "ko'mirga oid loyiha" ta'rifining (a) bandiga kirmasa.

YURIDIK XULOSA

Yuridik xizmat tomonidan "Biznesni rivojlantirish va transformatsiya qo'mitasi to'g'risida"gi NIZOM (bundan buyon matnda "Nizom" deb yuritiladi) loyihasi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomning 3.1.bandiga muvofiq huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Ushbu Nizom loyihasi O'zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 5-apreldagi Adliya vazirligi tomonidan 916-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi, Bank Ustavi va Bankning boshqa ichki qoidalari xususan Biznes jarayonlarni boshqarish Siyosati talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizom loyihasida Biznesni rivojlantirish va transformatsiya qo'mitasi a'zolari va raisi maqomini, vakolatlari, funksional vazifalarini, huquq va majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, Qo'mitaning ish reglamentini belgilovchi Bankning ichki qoidasi hisoblanadi

Nizom loyihasi matni O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom va AT "Aloqabank"ning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq keladi.